

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



I
SON

2024

Elektron ilmiy-ommabop jurnal

123-456-7890
@reallygreatsite
www.reallygreatsite.com



**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2024-yil
1-SON**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Bekmurodov Adxam Sharipovich, i.f.d., professor
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, i.f.n., dotsent
Qurbonov Samandar Pulatovich, PhD, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, PhD, dotsent
Ismailova Nilufar Sobitdjanovna, i.f.n.
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna,
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li,
Xolmatov Muhridin Mo'min o'g'li,

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич, <i>«Человеческий капитал в условиях цифровизации экономики».....</i>	4
Umurzakov Bahodir Xamidovich, <i>O'zbekistonda demografik rivojlanishning ta'lim tizimiga ta'sir etish jihatlari.....</i>	20
Usmanov Anvar Saidmahmudovich, Bahriddinova Muazzam Azam qizi, <i>Dunyodagi demografik vaziyat va uning rivojlanish istiqbollari.....</i>	34
Зокирова Нодира Каландаровна, Шакаров Зафар Гаффорович, <i>Человеческий капитал в условиях внедрения искусственного интеллекта: вызовы и перспективы.....</i>	46
Мамадалиева Хафиза Холдаровна, <i>Авлодлараро трансферлар ўзбекистон иқтисодиётини ўзгартириш шароитида камбағалликни бартараф этиш воситаси сифатида.....</i>	62
Юлдашев Нурбек Нормуродович, <i>Аҳолининг яқка тартибдаги тадбиркорлик (ЯТТ)ни ташкил этиши ва ўзини ўзи банд қилишининг яширин иқтисодиётни қисқаришига таъсири.....</i>	79
Ташбаева Рано Гайбуллаевна, <i>Многомерная бедность как индикатор социального благополучия населения Республики Узбекистан.....</i>	89
Камилова Наргиза Абдукахоровна, <i>Конкурентоспособность стран в мировом хозяйстве в условиях цифровизации экономики.....</i>	98
Rozmatova Umida Yuldashevna, <i>Nomoddiy aktivlar hisobini shakllantirish.....</i>	105
Mirzayeva Matluba G'aybulla qizi, <i>Banklar faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali aholini bandligini ta'minlash.....</i>	112
Yunusova Ug'iloy Bolqiboy kizi, <i>The impact of increasing the competitiveness of tourist areas on the level of employment.....</i>	121
Chinorova Shahodat Mansur qizi, <i>The role of higher education institutions in enhancing the attractiveness of human capital.....</i>	130
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir ugli, <i>The use of digital tools in the management of migration processes.....</i>	136
Asqarova Muhabbat Ibraximovna, <i>O'zbekistonda demografik jarayonlarning hududiy tahlili.....</i>	143

О‘ЗБЕКISTONDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING HUDUDIY TAHLILI

Asqarova Muhabbat Ibraximovna
katta ilmiy xodim
TDIU huzuridagi “O.,zbekiston
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari”ITM
muxabbat.asqarova@bk.ru
ORCID: 0009-0002-0121-7925.

Annotasiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududlaridagi demografik jarayonlar statistik ma’lumotlar va kuzatishlar asosida o‘rganilgan. Doimiy aholi sonining o‘sib borishi, aholi zichligi, tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish, mehnat resurslari va ularning hududiy ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: aholi, aholi zichligi, doimiy aholi soni, demografik ko‘rsatkichlar, demografik jarayonlar, tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi.

РЕГИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аскарова Мухаббат Ибрахимовна
Научный сотрудник научно-исследовательского
Центра «Научные основы и проблемы развития
экономики Узбекистана» при Ташкентском
государственном экономическом университете
e-mail: muxabbat.asqarova@bk.ru
ORCID: 0009-0002-0121-7925.

Аннотация. В статье на основе статистических данных и наблюдений изучаются демографические процессы в регионах Республики Узбекистан. Проанализированы рост постоянного населения, плотность населения, рождаемость, смертность, браки и разводы, трудовые ресурсы и их территориальные показатели..

Ключевые слова: численность населения, плотность населения, постоянное население, демографические показатели, демографические процессы, рождаемость, смертность, брак, развод, трудовые ресурсы, экономически активное население.

REGIONAL ANALYSIS OF DEMOGRAPHIC PROCESSES IN UZBEKISTAN

Askarova Mukhabbat Ibrahimovna
Junior researcher of the Research center
«Scientific bases and issues of economic development
of Uzbekistan » under the Tashkent
state university of economics
e-mail: muxabbat.asqarova@bk.ru
ORCID: 0009-0002-0121-7925.

Abstract. The article studies demographic processes in the regions of the Republic of Uzbekistan based on statistical data and observations. The growth of the permanent population, population density, birth rate, mortality, marriages and divorces, labor force and their territorial indicators are analyzed.

Keywords: population size, population density, permanent population, demographic indicators, demographic processes, birth rate, mortality, marriage, divorce, labor force, economically active population.

Kirish. Demografik jarayonlarni o'rganish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari aholining o'sish sur'atiga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehnatga layoqatli qismining iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun ham muhimdir.

Aholini hududiy jihatdan o'rganish maqsadida demografik holati va mehnat resurslarini ikkiga bo'lib o'rganiladi:

Birinchisi, aholi soni, oilalar tarkibi va aholining o'sish darajasi prognozi.

Ikkinchisi, aholining intellektual salohiyatini o'rganish va prognoz qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanamiz. Aholi turmush darajasini hududiy rivojlantirish jarayonlari uchta bosqichda oila, tuman va viloyat miqyosida olib boriladi. Shu nuqtai nazardan demografik jarayonlarni prognoz qilishda viloyat aholisining umumiy soni, aholining yosh va jins guruhlari bo'icha, qishloq va shahar aholisi turlariga bo'lib, prognoz qilinadi [3].

Aholining o'sishini tartibga solish uchun, eng avvalo aholining demografik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Chunki aholining demografik ko'rsatkichi aholi turmush darajasining ijtimoiy tushunchasi bevosita aholi, uning turmush tarzi va darajasi hamda intellektual salohiyati bilan bog'langan. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy salohiyat deganda aholi soni, tarkibi, dinamikasi va uning intellektual iqtidori tushuniladi. Inson, oila va mehnat resurslarisiz hech qanday rivojlanish bo'lmaydi. Iqtisodiyotning, o'zi odamlar bilan birga yuzaga kelib, ularning ta'siri ostida rivojlanib kelgan [4].

Aholi ham son, ham sifat jihatdan o'garmasdan bir nuqtada turaveradigan, tarixiy taraqqiyotga befarq qaraydigan muayyan narsa emas. U ishlab chiqarish usuli, iqtisodiy tizim sharoitiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi va o'z

navbatida iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatadi. Demografik vaziyatni ifodalovchi aholining ijtimoiy tarkibi, uning o'sish sur'atiga ta'sir etadi.

Har bir o'lka, hudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi avvalo, shu joyda yashovchi aholining mehnat faoliyatiga bog'liq. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoa ishlaridagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yoshi va jinsi shu o'lkada iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanshida katta rol o'ynaydi.

Demografik omilning o'zgarib borishi global muammo bo'lib, u ko'p jihatdan jamiyatning holati va rivojlanishini belgilaydi. Doimiy aholi soni hamda demografik holat ko'rsatkichlari Adliya vazirligining joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDIYo) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar va Ichki ishlar vazirligining joylardagi Ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi)ning Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan. Ushbu hisob-kitoblar Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan uslubiy Nizomga muvofiq amalga oshirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Amerikalik demograflar P. Xauzer va O. Dunkan demografiya talqiniga tor va keng ma'noda yondashishlarga to'xtalar ekan, tor ma'noda bu - demografik taxlil (demographic analysis), keng ma'noda - axoli to'grisidagi fan (population studies), degan fikrni bildiradi: "Demografik taxlil - aholining tarkibiy qismlari va ularning o'zgarishi turlichaligi bilan ish ko'radi. Aholi to'grisidagi fan markazida faqat demografik o'zgarishlarga emas, balki aholining o'zgarishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, biologik, genetik, geografik va x-k. o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liklik turadi" [8].

Respublikada demografiya fanini rivojlantirishda, ayniqsa M.Q. Qoraxonovning hissasi katta. Demograf olim respublikaning XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, demografik tarixini tiklagan. Shu bilan birga M. Qoraxonov Uzbekistan aholisining son va sifat xususiyatlarini, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarni ilk bor kompleks o'rganan hamda demografik prognozni amalga oshirgan, ushbu mavzularda ilmiy asarlar yaratgan [7].

Professor Q.X. Abdurahmonov tomonidan demografik tendensiyalar va ularning mehnat bozoriga ta'siri aniqlangan. Shuningdek, aholining to'xtovsiz ko'payib borishi, aholining keksayish muammosi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, yosh guruhlari o'rtasidagi munosabatlar hamda O'zbekistondagi demografik tendensiyalar tadqiq etilgan [1].

Yana bir darslikda demografiyaning fan sifatidagi shakllanishi, demografik jarayonlarni o'rganish manbalari, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishning demografik mohiyati, aholining son va sifat xususiyatlari, takror hosil bo'lish qonuniyatlari, jins, yosh, nikoh va oila tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholi

migratsiyasi, demografik prognozlashtirish masalalari Q.X. Abdurahmonov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan [2].

Xorijlik olim Borisov V.A. tomonidan demografiyaning ilmiy nazariy asoslari, aholi to'g'risidagi ma'lumotlar, aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlari, aholi tarkibi va uni o'rganish usullari, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishning demografik mohiyati, aholining son va sifat xususiyatlari, takror hosil bo'lish qonuniyatlari, oila tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholi migratsiyasi, demografik prognozlashtirish masalalari o'rganilgan [4]. Yana bir guruh xorijiy olimlarning tadqiqotlarida demografiyaning fan sifatidagi shakllanishi, demografik jarayonlarni o'rganish manbalari, aholi to'g'risidagi ma'lumotlar, aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlari, aholi tarkibi va uni o'rganish usullari, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishning demografik mohiyati, aholining son va sifat xususiyatlari, takror hosil bo'lish qonuniyatlari, jins, yosh, nikoh va oila tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholi migratsiyasi masalalari tadqiq etilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida qiyosiy tahlil, guruhlash, tizimli yondashuv, umumlashtirish, statistik tahlil, abstrakt-tahliliy usullar va boshqalardan foydalanildi.

- tadqiqotning dastlabki bosqichidan uning oxirgi bosqichigacha qiyosiy tahlili, statistik tahlil, tizimli yondoshuv usulidan foydalanildi, shuning natijasida ilmiy xulosalar qilindi;

- ma'lumot, ko'rsatkichlarni tahlil va sintez qilishda statistik usullardan foydalanildi.


- demografiyani o'rgangan olimlarning ilmiy- nazariy qarashlari, ilmiy yondoshuvlari, bergan ta'riflari tahlili va sintezi usullaridan foydalangan holda, amiyatli va muhim tomonlari izohlab o'tildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O'zbekiston Respublikasida 1991-2024-yillar mobaynida aholi sonining barqaror osishi kuzatilib, **doimiy aholisi soni**¹ 1991-yilda 20,6 mln. kishini, 2001-yilda 24,8 mln. kishini, 2006-yilda 26,3 mln. kishini, 2011-yilda 29,1 mln. kishini, 2021-yilda 34,5 mln kishini, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra esa, respublikaning doimiy aholisi soni 36,8 mln kishini tashkil etib, 1991-yilga nisbatan 16,2 mln kishiga yoki 1,6-martaga o'sgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2024-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra 37,4 mln kishini tashkil etib, Respublikamizning doimiy aholisi soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,1 foizga oshgan. Aholi soni 2024- yil boshidan buyon 555,6 ming kishiga ko'paygan. Jumladan, 2024-yilning

¹ Keltirilgan statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayiti stat.uz sayitidan olingan.

har bir oyida o'rtacha 61,7 ming kishiga oshgan. 2024-yilning har bir kunida doimiy aholi soni o'rtacha 2 ming kishiga ko'paymoqda. Doimiy aholining 18545,9 ming nafarini ayollar, 18809,5 ming nafarini erkaklar tashkil qiladi. 2024-yilning 1-oktyabr holatiga doimiy aholi tarkibidagi erkaklar soni ayollar sonidan 263,6 ming kishiga ko'p. Doimiy aholi sonining 9,6 mln nafarni 14–30 yoshdagilar tashkil etgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi sonining o'sish dinamikasi (yil boshiga)

O'zbekistonda tug'ilish kamaydi, o'limlar soni esa oshdi. Joriy yilning 9 oyida tug'ilgan chaqaloqlar soni 2023-yilning mos davridagidan 22 988 nafarga kam bo'ldi. Nikohlanishlar soni 179,4 mingga qisqargan. Bu oxirgi 8-yildagi eng past ko'rsatkich. Erkaklarning o'rtacha nikoh yoshi 27,4 yoshni, ayollarniki 22,5 yoshni tashkil qilgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonning doimiy aholisi tarkibi jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 5 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkich – 2 mln 262,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan – 657 ming kishi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 5 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkich – 2 mln 108,1 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan – 736 ming kishi.

1-jadval.


O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining hududlar bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi)

	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Res.	28001,4	31022,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	36799,8
Qoraqalpog'iston R.	1632	1763,1	1898,3	1923,7	1948,5	1976,2	2002,7
Andijon	2549,1	2857,3	3127,7	3188,1	3253,5	3322,7	3394,4
Buxoro	1612,5	1785,4	1923,9	1947,1	1976,8	2009,7	2044,0
Jizzax	1116,8	1250,1	1382,1	1410,5	1443,4	1475,5	1507,4
Qashqadaryo	2616,1²	2958,9	3280,4	3335,4	3408,3	3482,3	3560,6
Navoiy	851,6	913,2	997,1	1013,6	1033,9	1055,5	1075,3
Namangan	2258,5	2554,2	2810,8	2867,5	2931,1	2997,5	3066,1
Samarqand	3119,0	3514,8	3877,4	3947,7	4031,3	4118,2	4208,5
Surxondaryo	2075,0	2358,3	2629,1	2680,8	2743,2	2806,5	2877,1
Sirdaryo	714,4	777,1	846,3	860,9	878,6	896,6	914
Toshkent	2585,9	2758,3	2941,9	2975,9	2941,5	2993,4	3051,8
Farg'ona	3074,6	3444,9	3752,0	3820,0	3896,4	3976,3	4061,5
Xorazm	1561,6	1715,6	1866,5	1893,3	1924,2	1958,1	1995,6
Toshkent sh.	2234,3	2371,3	2571,7	2694,4	2860,6	2956,4	3040,8

Doimiy aholi sonining eng ko'p hudud Samarqand viloyati qayd etilgan – 4 million 249 ming nafar. Bu butun O'zbekiston aholisining 11,4 foizi degani. Shuningdek, Farg'ona (4,1 million kishi), Qashqadaryo (3,6 million kishi), Andijon (3,4 million kishi) va Namangan (3,1 million kishi) viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan ko'p aholi istiqomat qiladi.

Doimiy aholi sonining ulushi eng kam hudud Sirdaryo viloyati bo'lib, u yerda 922,1 ming kishi yashamoqda. Navoiy (1,1 million kishi), Jizzax (1,5 million kishi), Xorazm (2 million kishi) viloyatlari va Qoraqalpog'istonda (2 million kishi) nisbatan kam aholi istiqomat qiladi.


² O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining eng yuqori ko'rsatgichi kuzatilayotgan hududlar.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining hududlar bo'yicha o'sish tendensiyasi

3.2.6- rasmdan ko'rinib turibdiki, har bir hududda 2010-2024-yillarda aholi soni o'sishi kuzatilgan, lekin bu ko'rsatkichlar notekisligini kuzatishimiz mumkin. Faqat Sirdaryo viloyatida 14-yillik ko'satkichlarda tafovuytlar boshqa hududlarga nisbatan sezilarli darajada emas.

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'sishi: Qoraqalpog'iston Respublikasi – 1,4 %; Andijon viloyati – 2,1 %; Buxoro viloyati – 1,7 %; Jizzax viloyati – 2,1 %; Qashqadaryo viloyati – 2,2 %; Navoiy viloyati – 1,8 %; Namangan viloyati – 2,2 %; Samarqand viloyati – 2,2 %; Surxondaryo viloyati – 2,5 %; Sirdaryo viloyati – 1,9 %; Toshkent viloyati – 1,9 %; Farg'ona viloyati – 2,1 %; Xorazm viloyati – 1,9 %; Toshkent shahri – 2,7 % tashkil etdi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida aholi zichligi dinamikasi (2024-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)

2024-yil 1-oktyabr holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 83,2 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yil boshida 82,0 kishini tashkil qilgan. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,7 kishiga ko'p. Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (6 mingg 909,6 kishi), Andijon (801,3 kishi) va Farg'ona (610 kishi) viloyatida qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Navoiy viloyati (9,8 kishi kishi) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (12,1 kishi) kuzatilgan.

Hududlar kesimida aholi zichligi quyidagicha: Toshkent shahri – 6 909,6 kishi; Andijon viloyati – 801,3 kishi; Farg'ona viloyati – 610 kishi; Namangan viloyati – 418,7 kishi; Sirdaryo viloyati – 216,5 kishi; Toshkent viloyati – 204,4 kishi; Surxondaryo viloyati – 145,7 kishi; Samarqand viloyati – 254,9 kishi; Qashqadaryo viloyati – 126,6 kishi; Jizzax viloyati – 72,1 kishi; Buxoro viloyati – 51,4 kishi; Xorazm viloyati – 334 kishi; Navoiy viloyati – 9,8 kishi; Qoraqalpog'iston Respublikasi – 12,1 kishi.



4-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2024-yil 9 oyida qayd etilgan tug'ilishlar, ming kishi


Joriy yilning 9 oyida O'zbekistonda 693,9 nafar tug'ilish qayd etilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davrida 716,9 ming kishini tashkil etgan. Demak bu davrida tug'ilishlar soni 3,2 foizga qisqargan. Eng ko'p tug'ilishlar sentyabr oyida yuz bergan bo'lib, bir oy ichida 48 422 nafar o'g'il bola, 45 099 nafar qizlar dunyoga kelgan.

Eng yuqori tug'ilish ko'rsatkichi Surxondaryoda, lekin tug'ilish koeffitsiyenti 30,8 promilledan 29 promillega tushgan. Tug'ilish ko'rsatkichi

eng past hudud Qoraqalpog'iston, tug'ilish koeffitsiyenti 21,8 promilledan 20,6 promillegacha sekinlashgan.

Mamlakatda o'lim holatlari ham o'tgan yilga nisbatan ko'paygan. 2024-yil yanvar-sentyabr oylarida vafot etganlar soni 131,7 ming kishini tashkil etdi. Taqqoslash uchun, 2023-yilning mos davrida 129,7 ming kishi olamdan o'tgan. Mutahassislar fikriga ko'ra, vafot etganlarning o'limiga asosan qon aylanish tizimi kasalliklari, baxtsiz hodisalar, o'simtalar, nafas olish organlari kasalliklari, ovqat hazm qilish organlari kasalliklari sabab bo'lgan.

Joriy yilda 179,4 mingta nikoh qayd etilgan. Bu so'nggi 8 yillikdagi eng past ko'rsatkich. Shu davr ichida nikohdan o'tgan ayollarning o'rtacha yoshi 22,5 da, erkaklarniki esa 27,4 da bo'lgan.



5-rasm. O'zbekiston Respublikasida tuzilgan nikoh va nikohdan ajralishlar soni dinamikasi.

Yanvar-iyun oylarida O'zbekistonda 97 ming 400 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1265 taga kamaygan. 2022-yilning mos davri bilan taqqoslanganda esa 11 ming 534 taga kamaygan. Nikoh tuzishda ayollarning o'rtacha yoshi 22,9 yoshni, erkaklarning o'rtacha yoshi esa 27,8 yoshni tashkil etgan. Keltirilgan jami nikohlarning 76,2 foizini 25 yoshgacha bo'lgan ayollar tashkil qilgan va bu qayd etilgan eng katta yosh deb hisoblangan. Eng ko'p turmush qurish 20-30 yoshdagilarga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajralishlar soni 2024-yilning birinchi yarim yilligida 22 ming 467 tani tashkil qilgan, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,6 foizga (2955 taga) kamaygan.

Shuningdek, ushbu davr ichida nikohdan ajralishlar soni (farzandsizlik sababi bilan) 10 ming 479 tani (46,6 foiz), 1 nafar farzand bilan ajralishlar soni 6616 tani (29,4 foiz), 2 va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajralishlar soni

5374 tani (24 foiz) tashkil etgan. Bunda ajrashganlarning o'rtacha yoshi erkaklar uchun 37,1 yoshni, ayollar uchun 32,2 yoshni tashkil etgan.

2024-yilning dastlabki to'qqiz oyi yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda tug'ilish darajasi 3,2% ga qisqargan bo'lib, jami 693 897 nafar yangi tug'ilganlar ro'yxatga olingan. Nikohlanishlar soni 179,4 minggacha qisqarib, 2016-yildan beri eng past ko'rsatkichni qayd etgan. 2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekistonda tug'ilish darajasi 3,2%ga qisqargan bo'lib, jami 693 897 nafar yangi tug'ilganlar qayd etilgan (o'tgan yilning shu davrida — 716 885 nafar). Tug'ilish shaharlarda yuqoriroq sur'atda kamaymoqda.

Nikohlanishlar soni 179,4 minggacha qisqargan, bu 2016-yildan beri eng past ko'rsatkich hisoblanadi. Qishloq hududlarida nikohlanish sur'ati shaharlarga qaraganda tezroq pasaymoqda. Erkaklarning o'rtacha nikoh yoshi 27,4 yoshga yetgan, ayollarniki esa 22,5 yoshda o'zgarmay qolgan.

O'lim holatlari oshgan bo'lsa-da, ajralishlar soni 3-yil davom etgan o'sishdan keyin qisqargan.

Xorijga ko'chib ketganlar soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 6 ming 292 nafarga oshib 14 ming 666 kishini tashkil etgan.

Hozirda O'zbekistonning doimiy aholisi 37 million 335 ming nafarga yetgan. Bu demografik o'zgarishlar mamlakatda aholi o'sish sur'atlarining pasayishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakat aholisi tarkibida mehnat resurslarining o'sishi o'sha mamlakat aholisining ko'payishi bilan bog'liqdir. Aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham mehnat resurslarining yoshi 16-59 yosh deb belgilangan. Ularning soni yoshi iqtisodiyotda mehnat resurslarining miqdoriy sonini ifodalasa, bilim, sog'lomligi, malaka, kasbiy mahorati, ishbilormonligi mehnat resurslarini sifat ko'rsatkichlarini belgilashga asos bo'ladi va ular o'z o'rnida mehnat bozorida taqsimlanadilar.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir hududning rivojlanish salohiyati, muammolari va imkoniyatlari bir-biridan farq qiladi. Bu esa hududlararo tafovutlarni kamaytirish va har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun alohida yondashuvlarni talab qiladi.

Hududiy rivojlanishni ishlab chiqish, har bir hudud uchun alohida rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bu hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlanishi kerak.


Demografik siyosatni takomillashtirish: Aholi soni va tarkibini hisobga olgan holda, demografik siyosatni rivojlantirish, migratsiya jarayonlarini boshqarish va yoshlarni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilishi lozim.

Investitsiya muhitini yaxshilash: Hududlarda investitsiya muhitini yaxshilash uchun qulay sharoitlar yaratish, sarmoyadorlarni jalb qilish va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish choralari ko'rilishi kerak.

Infratuzilmani rivojlantirish: Transport, aloqa va energetika infratuzilmasini rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish zarur.

Har bir mamlakatning bebaho boyligi hisoblangan mehnat resurslari ishlab chiqarish salohiyatini, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini va jahon xo'jaligidagi o'rnini va mavqeyini belgilashda hal qiluvchi, yetakchi ahamiyatga ega. Mehnat resurslari — [mamlakat](#) aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi [9]. Mehnat resurslarini yoshi ulg'ayib bu guruhni sekin asta tark etib boradi, ularning o'rnini esa o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari egallashadi. Bu jarayon huddi tabiat qonunlaridek davomiylikka ega. Farqi esa bir insonni bu aylanma harakatda faqat bir marotaba ishtirok etishidadir.

Mamlakat aholisi tarkibida mehnat resurslarining o'sishi o'sha mamlakat aholisining ko'payishi bilan bog'liqdir. Aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham mehnat resurslarining yoshi 16-59 yosh deb belgilangan. Ularning soni yoshi iqtisodiyotda mehnat resurslarining miqdoriy sonini ifodalasa, bilim, sog'lomligi, malaka, kasbiy mahorati, ishbilormonligi mehnat resurslarini sifat ko'rsatkichlarini belgilashga asos boladi va ular o'z o'rnida mehnat bozorida taqsimlanadilar.




6-rasm. O'zbekistonda mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol aholi bo'yicha taqchimlanishi

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra mamlakatda doimiy aholi soni 2024-yilning 1-oktyabr holatiga 37 355,4 ming kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga ko'paygan bo'lsa, yil boshidan buyon 555,6 ming kishiga ko'paygan. Shundan: ayollar – 18 545,9 ming kishi, erkaklar – 18 809,5 ming kishi bo'lib, shahar joylarida istiqomat qiluvchi aholi – 19047,1 ming kishini, qishloq joylarida esa – 18 308,3 ming kishi. Aholi zichligi 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 83,2 kishini tashkil etmoqda. Mehnat resurslari 19739,6 ming kishi, ya'ni umumiy aholining 53,4 foizini tashkil qiladi. Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 15038,3 ming kishini tashkil etgan (jami mehnat resurslarining 76,1 %) va bu ko'rsatkich 2000-yilga nisbatan 5 339 ming kishiga yoki 59,2 % o'sgan.

Ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan yillar mobaynida iqtisodiy faol va ish bilan band aholi soni o'sgan. Mehnat resurslarining mamlakatimiz hududlari bo'yicha taqsimotiga ko'ra, respublika bo'yicha jami mehnat resurslarining eng yuqori ulushi Samarqand (11,1 %) va Farg'ona (10,9 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rinlarda Qashqadaryo (9,6 %), Andijon (9,2 %) viloyatlari va boshqa viloyatlar egallagan. Mehnat resurslarining eng past ulushi Sirdaryo (2,5 %) va Navoiy (2,9 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda (1-rasm).



7-rasm. Mehnat resurslarining mintaqalardagi o'sish tendensiyalari

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <https://stat.uz/uz/>

Bundan tashqari, yillar davomida mehnat resurslarining o'sish ko'rsatkichi eng kam huddular Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlarida kuzatilmoqda. 3.2.11- rasmdan ko'rinib turibdiki, mehnat resurslari oxirgi 14-yil

ichida Toshkent shahri, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida sezilarli darajada oshgan.

Aholining iqtisodiy faollik darajasi respublika bo'yicha 2023-yilda 72,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 73,7 foizni 2021-yilda esa 74,1 foizni tashkil etgan. 2023-yilda aholining iqtisodiy faollik darajasi Toshkent shahri (87%) Toshkent viloyati (77,5 %), Andijonda viloyati (75,9 %)larida kuzatildi. Oxirgi 10-yil davomida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (88.8%) 2019-yilda kuzatilgan edi.

Xulosa. Mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko'rsatkichi ularning miliy iqtisodiyotda ish bilan bandligida ifodalanadi. Ish bilan bandlik – bu iqtisodiy faol aholining qonun hujjatlariga muvofiq, daromad keltiradigan faoliyatga ega bo'lishidir. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasiga asosan ish bilan ta'minlash – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.

Mehnat resurslari sonining doimiy aholi o'sish suratlariga nisbatan ustuvor ravishda o'sishi ularning milliy iqtisodiyotdagi bandligi tendensiyalariga ham jiddiy ta'sir etib, yangi ish o'rinlarini yaratish va ularni iqtisodiyot tarmoqlari va mintaqalari bo'yicha oqilona va samarali band etish zaruratini keltirib chiqardi. Mehnat resurslaridan unumli foydalanishni ta'minlash uchun quyidagilarni:

- yangi ish o'rinlarini yaratishni qo'llab-quvvatlashni yana-da kuchaytirish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish;

- zamonaviy iqtisodiyotni rivojlanishi va raqamlashtirishni inobatga olgan holda fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv texnologiyalarni joriy etish hisobiga asosan yuqori texnologik va daromadli ish o'rinlarini barpo etish;

- respublikaning tuman markazlarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish hamda agroservis xizmati ko'rsatish orqali mehnat resurslarini bandligini oshirish kabi ishlarni yzlg qo'yish maqsadli deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti (darslik)*. -T.: — «Mehnat» — 2009. — 145 b.

2. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. *Demografiya. Darslik*. - T.: "IQTISODIYOT", 2014. -364 B.

3. Abdullayev I S. *Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt.fan.bo'yicha dok. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.* Toshkent, o,66 b.

4. Беркинов Б., Джуряев Т., Мухитдинов Х.С. *Моделирование механизма индексации доходов населения. //Вопросы моделирования и*

информатизации экономики. -Ташкент: НПО "Кибернетик" АН Руз, 1995. - вып. 6. -С. 3-14.

5. Hauser P.M. Overview and Conilusion The Study of Population. An inventory and Appraisal. — Chicago, 1959.-P.2-3.

6. Борисов В.А. Демография. – М.: Издательский дом НОТА ВЕНЕ, 2009. – 272 с.

7. Демография: учебник для вузов. /Под ред. Глушкова В.Г., Симагина Ю.А. 5- изд., стер. – М.: Кнорус, 2010. – 288 с.

8. Караханов М. Некапиталистический путь развития и проблемы народонаселения. - Т. , 1983;Демографические процессы в Средней Азии // Брачность, рождаемость, смертность в СССР. - М., 1977. -191-213 стр.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi <https://stat.uz/uz//>

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

